

Q'ZBEKISTON ZAMINI




Земля Узбекистана


Land of Uzbekistan

ISSN 2181-9955

Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal



4/2021



O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 25 avgust kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuniga asosan har yili dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni sifatida belgilanib, keng nishonlanib kelinmoqda.

Mamlakatimizning qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan hamda faoliyati qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha yurtdoshlarimizni, dehqonlarni, chorvadorlarni, bog'bonlarni, pillakorlarni, fermerlarni, klasterlarni va soha olimlarini joriy yilning 12 dekabr kuni bo'lib o'tadigan Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan "O'zbekiston zamini" ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali tahririyati jamoasi nomidan samimiy tabriklaymiz.

Qishloq xo'jaligi xodimlarining mamlakatimiz rivoji, xalq farovonligi, kafolatlangan oziq-ovqat xavfsizligi yo'lida olib borayotgan g'oyat sharaftli va mashaqqatli ishlari tahsinga sazovordir. Bu borada soha xodimlari faoliyatlariga ulkan zafarlar tilaymiz.

Bayramingiz muborak bo'lsin aziz hamkasblar!

TAHRIRIYAT





O'ZBEKISTON ZAMINI

Земля Узбекистана

Land of Uzbekistan

Ilmiy – amaliy va innovatsion jurnal

2021 yil 4 - son

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi
vazirligi
"O'zdavyerloyiha"
davlat ilmiy loyihalash
instituti

Bosh muharrir:

Erkin Mengliqulov

Tahrir hay'ati:

J.A. Xodjayev
(hay'at raisi)

Sh.J. Teshayev
M.I. Ruzmetov
B.T. Norqobilov
N.J. Bakirov
A.X. Abdullayev
T.M. Abdullayev
B.A. Sulaymonov
K.Sh. Tojiboyev
R.A. To'rayev
Sh.M. Bobomurodov
M.S. Malawska
A. Sukiasyan
R.R. Suleymanov
P. Kováčik
V. Rataj
L.A. G'afurova
T.X. Farmonov
S.A. Avezbayev
A.S. Altiyev
G'Y. Yuldashev

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

В.М.Гончаров, Е.В.Фаустов, Г.Юлдашев Агрофизическое состояние почвенного покрова Владимирского ополья и его оценка ..	3
С.З.Кроян, А.Р.Сукиасян, З.А.Жаббаров Исследование некоторых изменений водно-физических свойств <i>Kastanozems</i>	8
A.S.Suyunov, A.A.Mirzayev, F.Xushmurodov Elektron taxometrlarning burchak o'lchash xatoliklarini tekshirish va aniqligini baholashda metrologik nazorat	13
R.Kulmatov, J.A.Mirzayev, M.J.Muxammadiyev Iqlim o'zgarishi sharoitida kollektor-zovursuvlaridan qayta foydalanish	16
M.X.Xamidov, K.T.Isabayev, P.O'Isломov Xorazm vohasining sug'oriladigan yerlarini gidromodul rayonlashtirishda geoaxborot texnologiyalari	21
D.O.Jurakulov, L.T.Ibragimov, J.A.Akaboyev Aholi punkti hududi yer resurslarining milliy yer hisobotini yuritish	29
M.I.Ruzmetov Tog', tog'oldi va cho'l yaylov yerlari tuproqlarining unumdorlik holati va ulardan samarali foydalanish yo'llari	36
P.A.Тураев Ведение мониторинга земель	46
R.Kurvantayev, S.R.Nazarova Qorako'l vohasi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarining mexanik va mikroagregat tarkibi	54
Г.Т.Парпиев Формирование плодородия орошаемых почв и возраст агроупрощающих слоев сероземного пояса	58
Т.Ураимов, И.Рузиев Влияние гербицидов на азотный режим луговой почвы	65
A.R.Babajanov, Yu.M.Akramova Holati buzilgan sug'oriladigan ekin yerlarini qishloq xo'jaligiga qaytarish va qayta tiklashning muhim tashkiliy masalalari	69
Sh.A.Jo'rayev, A.J.Boirov, X.T.Nuriddinova, O.T.Xolmatov Tipik bo'z tuproqlar fosfatlari fraksiyaviy tarkibining lalmikor dehqonchilikda o'zgarishi	72
K.X.Buxorov, M.T.Xonkeldiyeva Bug'doyning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga fuzarioz kasalligining ta'siri	78

N.Y. Abduraxmonov
Z.A. Jabborov
R.X. Xo'jaqulov
G.T. Parpiyev
A.R. Babajanov

Jurnal 2019 yil aprel
oyidan chiqa boshlagan

Bir yilda to'rt marta
chop etiladi

Obuna indeksi: 1356

Manzilimiz:
1000097, Toshkent Sh.,
Chilonzor tumani,
Cho'ponota ko'chasi
Tel:
+99894 647 - 87 - 35
+99888 788 - 77 - 84
E-mail:
uzbekiston_zamini@
umail.uz
www.uzzamin.uz
www.uzdavyerloyiha.
uz

*Chop etilgan maqola
mazmuni va unda
keltirilgan raqamlarning
to'g'riligiga muallif
javob beradi*

D.A.Quvvatov, T.N.Xolmurodova, J.Ch.O'rinov, Sh.Sh. Bobomurodova Kollektor va zovur suvlarini biologik usulda tozalashda azolla caroliniana wild., Eichhornia Crassipes solms., pistia stratiotes L., suv o'simliklarining afzalligi	83
X.Axatov, S.Bo'riyev, A.Abdukarimov, D.Kenjaye v Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarga solingan fosfogips ta'sirida flor elementi miqdorining o'zgarishi	88
Sh.R.Bobochev, Q.E.Karimov, O.B.Ahmadov Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini takomillashtirish	91
M.A.Yaxyoqulova, Q.T.Jo'rayeva Kaliyli o'g'itlarni har xil me'yorda qo'llashning bug'doy o'simligidagi zang kasalligining oldini olish va hosildorligiga ta'siri	94
Z.A.Abdikayumov, O.O.Sattarov Kivi o'simligi navlarining O'zbekiston tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi	96
Q.M.Hojiyev Iqtisodiyot tarmoqlaridagi hisob-kitoblar tizimida yer hisobining o'rni va uni yuritish xususiyatlari	100
Q.Yuldashev, B.Maxsudov, I.Ikramov, T. Mashanpin, B.Qaxxorov Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishdagi geoaxborot tizimlarini joriy etish istiqbollari	107
M.I.Nuretdinova Baholash tushunchasining kelib chiqish tarixi	112
A.Davranov Andijon viloyatida yer resurslaridan oqilona foydalanish asoslari va klassifikatsiyasi	115
J.J.Qodirov, U.O.Nurmatov Uzum ko'chatlarini o'sishi va rivojlanishiga ekishdan oldin qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarning ta'siri	120
M.B.Nurmanova Yerlarning sifat va miqdor ko'rsatgichlarini baholashda kartografik ta'minot	123
H.X.Tashbayeva Yer axborot tizimi, unung mazmuni va mohiyati	127
K.M.Khaitova The role of climate in the formation of mountain and foothill pastures	130

O'zbekiston zamini ilmiy- amaliy innovatsion jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2019 yil 10 yanvarda 1006-raqam bilan ro'yxatga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori bilan quyidagi fanlar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etiladigan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

- 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
- 03.00.00-Biologiya fanlari
- 05.00.00-Texnika fanlari
- 11.00.00-Geografiya fanlari
- 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
- 18.00.00-Arxitektura fanlari

ELEKTRON TAXEOMETRLARNING BURCHAK O‘LCHASH XATOLIKLARINI TEKSHIRISH VA ANIQLIGINI BAHOLASHDA METROLOGIK NAZORAT



A.S. Suyunov
T.f.d., professor



A.A. Mirzayev
Katta o‘qituvchi



F. Xushmurodov
(PhD) doktorant

Samarqand davlat arxitektura qurilish instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron taxeometrlarni tekshirishning qayd etilgan usullari va vositalari, geodezik o‘lchash asboblari (kollimator) bilan elektron taxeometrlarni texnologik va metrologik tekshiruvlarini bajarish usullari yoritilgan. Geodezik o‘lchash asboblari (kollimator) elektron taxeometrlarning asosiy metrologik tavsiflarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borishda asbob ishlab chiqaruvchilar qo‘llaydigan asosiy usuli keltirilgan.

Kalit so‘zlar: elektron taxeometr, kollimator, stend, lazer nuri, burchak va masofa o‘lchash, geodezik o‘lchash asboblari, metrologiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы и средства поверки электронных тахеометров, методы проведения технологических и метрологических проверок электронных тахеометров геодезическими измерительными приборами (коллиматором). Геодезические измерительные приборы (коллиматорные стенды) являются основными методами, которые производители приборов используют при проведении исследований по определению основных метрологических характеристик электронных тахеометров.

Ключевые слова: электронный тахеометр, коллиматор, стэнд, лазерный луч, измерение угла и расстояний, геодезические приборы измерения, метрология.

Annotation. This article discusses methods and means of checking electronic tachometers, methods of conducting technological and metrological checks of electronic tachometers with geodetic measuring devices (collimator). Geodetic measuring instruments (collimator stands) are the main methods that instrument manufacturers use when conducting research to determine the main metrological characteristics of electronic total stations.

Key words: Electronic total station, collimator, stand, laser beam, angle and distance measurement, geodetic measuring instruments, metrology.

Kirish. Bajarilgan geodezik o‘lchashlarning aniqligini baholash ishonchli geodezik ma’lumotlarni olishda eng muhim qadamlardan biridir. Geodezik asboblarni sertifikatlash va metrologiyada ishonchli aniqlikka erishish majburiy ko‘rsatgich hisoblanadi. Ko‘pgina zamonaviy elektron geodezik asboblarning dasturiy ta’minotida o‘lchash aniqligini tenglashtirish va baholash uslubiyati joriy etilgan. Biroq, bu hisoblash operatsiyalari “shaffof” ligini hech kim kafolatlay olmaydi, bu bizga olingan o‘lchov natijalarining ob’ektivligiga va aniqlikni yetarli baholashga

ishonch hosil qilish imkonini bermaydi. Buning uchun qo‘shimcha tadqiqotlarni o‘tkazish zarur bo‘ladi. Zamonaviy geodezik o‘lchashlarni amalga oshirishda ularning aniqligini ta’minlash talablarini oshirishni nazarda tutadi [1].

Zamonaviy geodezik asboblardan elektron taxeometrni misol sifatida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda masofa gorizont va vertikal burchaklarni aniqligini takomillashtirish zarur bo‘ladi. Bunda tashqi va ichki ta’sirlarni hisobga olish va elektron taxeometrlarning funksional va texnik xususiyatlarini ta’sir eta oladigan usulni tadbiq etish

orqali amalga oshirish mumkin. Ammo geodezik asboblarning tuzilish murakkablashganligi, unga elektronikaning joriy qilinganligi geodeziya mutaxassislari oldida yana bir muammo elektron taxeometrlarda amalga oshirladigan o'lchovlar, hisob kitoblar va qayta ishlashdagi ichki jarayon nazoratini qiyinlashtirdi [2].

Tadqiqot ob'ekti va uslublari. Zamonaviy optik-elektron burchak o'lchash asboblari xatolar ta'sirini hisobga olish va tuzatma kiritish dasturi bilan jihozlangan. Bu jarayon gorizontal va vertikal burchaklar o'lchanib displeyda qiymatlar aks etganda, o'lchangan o'lchovlar asbob mikroprotessorining avtomatlashgan tizimi yordamida tuzatmalar kiritilgan natijalar keltiriladi. Bu hisobga olish va tuzatishlarni kiritish imkoniyati elektron taxeometr va teodolitlarda qo'llaniladi. Bu yo'nalish va burchaklarni o'lchash aniqligini oshiradi [3].

O.B.Xinoeva bu sohada tadqiqotlar olib boriladigan uchta usulga e'tibor qaratadi. Birinchi usul geodezik asbobni tekshirish natijalari asosida sistematik xatolikni hisobga olishdir. Ikkinchi usul-matematik modelni yaratish. Uchinchi yo'l sun'iy neyron tarmoqlarini yaratishdir.

Birinchi yondashuv o'zini oqlaydi, lekin juda ko'p o'lchov va vaqtni, muayyan sharoit va qimmat uskunalarni talab qiladi. Bundan tashqari, olingan o'lchov xatosining alohida tarkibiy qismlari statistik jihatdan bir-biriga va aylantirilgan signallarga bog'liq bo'lishi mumkin va bu munosabatni aniqlash juda qiyin. Biroq, yaqin-yaqingacha, bu variant eng keng tarqalgan edi.

Ikkinchi yondashuvda har doim ham optimal matematik modelni topish mumkin emasligi bilan murakkablashadi va model ko'pincha juda noqulay va tahlil qilish qiyin bo'lgan formulalar yordamida o'rnatiladi. Bundan tashqari, matematik modellar, odatda, ma'lum boshlang'ich sharoit va taxminlarda tekshirilib, ko'pincha haqiqiyliklaridan farq qiladi.

Uchinchi yondashuvda O.B.Xinoeva tadqiqotning asosiy yo'nalishi sifatida tanlagan va bu usulni asbobsozlikda innovatsion yechim deb hisoblaydi. Har bir tadqiqotchi o'zi uchun uchta yo'nalishning qaysi birida tadqiqot olib borishini aniqlashi kerak [4].


Shunday qilib, geodezik o'lchashlar aniqligini to'g'ri baholash uchun turli xil xato manbalarining o'lchashlar aniqligiga ta'siri imkoniyatini baholash kerak. Buning uchun asbob

ishlab chiqaruvchilar maxsus kollimator stendlar yordamida elektron taxeometrlarni tekshirish natijalari asosida ularning burchak o'lchash xatoliklarini tekshirish va aniqligini baholashda metrologik nazorat amalga oshiriladi.



Leica Geosystems AG firmasining elektron taxeometrlari, masalan TS 02, gorizontal burchaklardan va vertikal yo'nalishlardan absolyut kodli bir tomonlama hisoblash sistemalariga va yuqori rentabelli mikroprotessorga ega bo'lib, ular yordamida dasturlash yo'li bilan o'lchash natijalariga eksentrisitet va boshqa sistematik asbob xatoliklarining ta'siri kompensatsiyalanadi. Bu asboblarni sanoq olish sistemalaridagi xatoliklarini aniqlash uchun o'lchashning barcha oraliqidagi ishchi holatlarida Leica firmasining korxonalarida avtomatlashtirilgan "TRM WILD HEERBRUGG" kompleksi yaratilgan (1-shakl) [5].

"TRM WILD HEERBRUGG" da namunali sanoq olish sistemalari sifatida WILD Theomat T2002 teodolitdagi dinamik sanoq olish sistemalari xizmat qiladi (T2002 teodolitlarida gorizontal burchak va vertikal yo'nalish o'lchashda o'rta kvadratik xato 0,18" dan oshmaydi).

"TRM WILD HEERBRUGG" o'qiy sistemasini geometrik nuqtai nazardan elektron taxeometrning o'qiy sistemasiga to'g'ri keladi. Tadqiqot qilinayotgan asbob va namunali hisoblash sistemalarining o'qlari orasidagi eksentrisitetlari o'lchash aniqligiga ta'sir etmaydi, sababi etalon



1 -Rasm. "TRM WILD HEERBRUGG" konstruksiyasi.



2-Rasm. VEGA UKS kollimator stendi

1-stend tagligi; 2 - to'liqinni so'ndiruvchi asos; 3 - kollimatorlarni mahkamlovchi qurilma;
4- asbob o'rnatish tagligi; 5- gorizontall kollimatorlar A va V; 6 – qiya kollimatorlar; 7 – monitor;
8-yorug'lik filtri; 9 - elektr ta'minoti bloki; 10 – stendni nazorat qilish bloki

yo'nalishlar avtokollimator yordamida beriladi. Gorizontall hisoblash sistemalaridagi xatoliklarni aniqlash uchun asbobning alidadasini qo'zg'almas holatda bo'ladi. Asbobning tag qismi taglik bilan birgalikda mexanik jihatdan tiralguncha etalon burchakga buriladi. Bu holda avtokollimator gorizontall holatda bo'ladi. Hisoblash vertikal sistemalari xatoligini aniqlashda avtokollimator vertikal tekislikda siljiriladi. Asbobning qarash trubasi avtokollimatorning ketidan kerakli burchakga buriladi.

VEGA UKS kollimator stendi turli xil geodezik va o'lchash o'lchov asboblarni tekshirishlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Metrologik laboratoriyalarda, geodezik va o'lchash vositalari, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatish markazlari va geodezik asbob-uskunalarni ta'mirlash

sexlarining metrologik xarakteristikalarini aniqlash va nazorat qilish uchun qo'llaniladi.

Xulosa. Elektron taxometrlar uchun funksional bog'liqlar murakkab bo'lib, ularni aniqlash masalasi oson emas. Elektron taxometrlar ko'p funktsionalligi, ularning konstruksiyalarini murakkabligi, elementlarining xarakterlari ko'plab faktorga bog'liqligi xatoliklarni nazariy tadqiqot va tahlil qilishni, kompyuterda modelashtirish yangi usullarini qo'llashni tavsiya etadi. Asbob barcha sistemalarni ishlash algoritmini matematik jihatdan yagona tavsif berish, signallarni bosqichma-bosqichlik bilan optik, elektrik, signallarga taqlid qilish (imitatsiya) o'zgartirish, oqimlarni va yorug'liklarni taqsimlash, geometrik-optik nisbatlarni kompyuter bazasida yozish orqali virtual asboblarni yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Высokоточные угловые измерения / Д.А.Аникст, К.М.Константинович, И.В.Мескин и др.; Под ред. Ю.Г. Якушenkova, М.: Машиностроение, 1987г. – с.480.
2. A.S.Suyunov va boshqalar; Yuqori aniqlikdagi geodezik ishlar. – T., Voris nashriyoti 2016y. 146 b.
3. A.S.Suyunov. va boshqalar; Amaliy geodeziya. T., Innovatsion rivojlanish nashriyoti matbaa uyi, 2021, 360 b.
4. М.М.Карсунская, Ю.М.Климов, Ю.Б.Парвулюсов "Анализ погрешностей лазерной визирной системы". – Изв. Вузов Геодезия и аэрофотосъемка. 1995, №3, 116-124с.
5. М.М.Карсунская "Опыт применения автоматизированных комплексов для определения метрологических характеристик геодезических приборов". Сборник материалов отраслевого семинара специалистов метрологической службы Роскартографии "Метрологическое обеспечение топографо-геодезического и картографического производства", Нижний-Новгород, 13-16 июня 2000 г., с. 109-117.
6. О.Б.Хиноева О повышении точности измерений в геодезии // Техника и технология. - 2004. - № 6. - С. 66-69.
7. Ingensand H. TPM – Ein neues Great zur vollautomatischen Prufung von Teilkreisen in elektronischen Theodoliten. X. Internationaler Kurs fur Ingenieurvermessung, Munchen 12-17. September 1988. S. A 6/1-A6/12.

“O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnalida maqola chop etish uchun qo‘yiladigan TALABLAR

Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

1. Taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnalining ruknlariga mos kelishi shart.

2. O‘zbek tilidagi maqolalar lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yozilishi va taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Maqola xalqaro andozalarga muvofiq quyidagi talablarga javob berishi lozim:

-*Maqola mavzusi (Title)*

-*Maqola muallif(lar)i to‘g‘risida ma‘lumot (information about the author)*

-*Maqola annotatsiyasi (Abstract)*

-*Kalit so‘zlar (Key words)*

-*Kirish (Introduction)*

-*Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)*

-*Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)*

-*Tahlil va natijalar (Analysis and results)*

-*Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)*

-*Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)*

Maqolani rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

Matn – Microsoft Word–2003.

Maqola matni chapdan – 3 sm, o‘ngdan – 1,5 sm, yuqori va pastdan – 2 sm qoldiriladi.

Shrift – Times New Roman.

Maqola matni shriftining kattaligi – 14;

Qatorlar oralig‘i (interval) – 1,5;

Xat boshi (abzas) – 1,25.

Muallifning ismi, familiyasi, otasining ismi, ish joyi (o‘qish joyi), lavozimi, elektron pochta manzili haqidagi ma‘lumot maqola yuqori qismining o‘ng tarafiga kichik harflarda, o‘zbek, rus, ingliz tillarida, kursiv (Shriftning kattaligi – 14. Qatorlar oralig‘i (interval) – 1) bilan yoziladi.

Maqolaning nomi o‘zbek, rus, ingliz tillarida (Shriftning kattaligi – 14) – bosma harflarda markazda qo‘yiladi.

Qisqacha annotatsiya o‘zbek, rus, ingliz tillarida (Shriftning kattaligi – 12. Qatorlar oralig‘i (interval) – 1) yozilishi lozim. So‘zlar soni 60-80 tani tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kalit so‘zlar – (6 – 10 tadan kam bo‘lmagan) uch tilda o‘zbek, rus, ingliz tillarida beriladi.

Maqola mavzusiga mos UO‘K indeksi birinchi sahifaning chap burchagiga qo‘yiladi.

Matndagi havolalar quyidagi tartibda shakllantiriladi; [1] yoki [2, C.170] yoki [3, C.132, 185, 193].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati alifbo tartibida (Times New Roman; 12 shrift; 1.0 interval) ko‘rsatilishi lozim.


Tayyor maqolaning hajmi 5 betdan kam bo‘lmashligi lozim.

Nashr uchun tayyor maqola 2 nusxada ekspert xulosasi va elektron varianti bilan qabul qilinadi.

Bosmaxonaga topshirildi: 03.12.2021. Bosishga ruxsat etildi: 06.12.2021. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida ofset qog‘ozida chop etildi. Shartli bosma tabog‘i 10,23. Nashr hisob tabog‘i 6,5. Buyurtma № 319. Nuxxasi 500 dona. “Print Line Group” XK bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahri, Bunyodkor shohko‘chasi, 44-uy.

Navbatchi muharrir:
Kenjayeva X.

Dizayner:
Axadov B.



YURTDAN OLISDA

*O'zimda emasman. Ichikdim,
Ko'ngrim bu dam — mulki vayronim.
Oh, sensiz men Oyda ham hech kim,
Ona yurtim, ota makonim.*

*Derlar bunda: "Gospodin", "Mister",
Yangrab qolar ba'zan: "Efendim".
Men esa jon-jonimga tatir
"Oshna" degan so'zni sog'indim.*

*Qayda bo'lmay, London, Parijda,
Haybati, hayrati cho't emas.
Ne tong, bugun kibor xorijda,
Toshkent, Termiz, Andijon havas.*

*Shubha nechun?
Taqdir zayli bu:
Shunday bo'lgan, shunday bo'lajak.
Milyon-milyon yurak mayli bu,
Buyuk o'tmish — buyuk kelajak!*

*Qaysi el iymonda poyidor,
E'tiqodda sobitdir birday
Unga Olloh o'zi bo'lib yor,
Ulug'larning ruhi qo'llagay.*

*Yon bermasak turfa kazzobga,
Kim ham bizga yomonlik o'ylar.
Nogahoniy ofat-qazoga
Balogardon Naqshbandiylar.*

*Bu shundayin yurt — jannatmonand,
Osoyishta eru osmoni.
Ezgulikka dillari payvand
Odamlari odamning joni.*

*Qad rostlaydi bog'i Eram, chin,
Qay tomonga nigohing toysa.
Noxos bilmay bosganing uchun
Kayfiyating buzmaydi maysa...*

*Shu dam yurtim toshu giyohin,
Har kimga maqtanib tolaman.
Bayon etsam holu siyoqim:
Ona deb ichikkan bolaman!*

Sirojiddin Rauf



O'ZBEKISTON ZAMINI

ISSN 218199-55



9 772181 995000

